

Davlatlararo va mamlakat ichidagi yo'nalishlarda harakatlanuvchi poyezdlar, shuningdek yuqori tezlikda harakatlanuvchi "Afrosiyob" poyezdida harakatlanish uchun naqdsiz hisob-kitob asosida yo'l hujjatlarini (chiptalarni) rasmiylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish

444-3000 - SONLI HISOB - KITOB SHARTNOMASI

Toshkent shahar.

03.02.2022y.

"O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ yo'lovchi tashishni tashkil etish bo'yicha Toshkent filiali nomidan ishonchnoma asosida harakat qiluvchi filial boshlig'i M.B.Mamaraimov (bundan keyin matnda "Bajaruvchi" deb ataluvchi) bir tomondan va "Watanparvar" JSC yo'lovchi xizmat ko'rsatuvchi nomidan hizmat asosida harakat qiluvchi A. Yu. Kurbanov, (bundan keyin "Buyurtmachi" deb ataluvchi) ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

**1. Shartnoma predmeti**

**1.1. "Bajaruvchi" "Buyurtmachiga"**, davlatlararo va mamlakat ichidagi yo'nalishlarda harakatlanuvchi poyezdlar, shuningdek yuqori tezlikda harakatlanuvchi "Afrosiyob" poyezdida harakatlanish uchun naqdsiz hisob-kitob asosida yo'l hujjatlarini (chiptalarni) rasmiylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi

**1.2. "Buyurtmachi"** mazkur shartnomaning 1.3-bandiga muvofiq "Bajaruvchiga" temir yo'l chiptalari uchun 100% miqdorda oldindan to'lovni amalga oshiradi.

**1.3. Mazkur shartnomaning umumiy qiymati, QQS ni hisobga olgan holda quyidagicha hisoblanadi:**

Maxsulot nomlanishi (ish,xizmat)	O'lchov birligi	Miq-dori	Narxi	Yetkazib berish qiymati	QQS 15%	QQSni hisobga olgan holda yetkazib berish qiymati
Temir yo'l chiptalari <u>Toshkent - Tirmex-Tashkent</u>	Dona	<u>4</u>	<u>205550</u>	<u>84220,84</u>	<u>104139,16</u>	<u>821400,00</u>
JAMI:				<u>84220,84</u>	<u>104139,16</u>	<u>821400,00</u>

**2. Shartnoma shartlari**

**2.1. "Buyurtmachi"**ning buyurtmanomasiga ko'ra "Bajaruvchi" alohida yo'lovchilar guruhini(10 kishi va undan ortiq) tashishga yo'l hujjatlari rasmiylashtirilishini amalga oshiradi, bunday buyurtmanomalar "Buyurtmachi"dan poyezd jo'nab ketishidan kamida 20 kun oldin qabul qilinadi.

**2.2. "Buyurtmachi"**, rahbar va bosh hisobchi tomonidan imzolangan va yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlangan buyurtmanomani taqdim etadi. Unda, yuridik shaxsning, ya'ni "Buyurtmachi" ning nomi, talab qilinayotgan joylar soni, jo'nab ketish sanasi, jo'nab ketish va yetib borish bekatlari ko'rsatiladi. Buyurtmanomaga, jo'nab ketayotgan guruh a'zolarining familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport seriyasi va raqami, tug'ilgan yillari ko'rsatilgan ro'yxatlari 2 nusxada ilova qilinishi kerak.

**2.3. "Buyurtmachi"** yo'lovchi poyezdi jo'nab ketishidan 10 kun oldin, yo'l hujjatlarining to'liq qiymatini to'lagan holda buyurtma qilingan yo'l hujjatlarini sotib olishi shart. Yo'lovchi poyezdi jo'nab ketgunga qadar yo'l hujjatlarini belgilangan muddatda "Buyurtmachi" tomonidan sotib olinmagan taqdirda, buyurtmanoma bekor qilinadi va joylar sotuvga topshiriladi.

**2.4** Temir yo'l hujjatlarini 10 tadan kam kishiga rasmiylashtirayotgan "Buyurtmachi", yo'l hujjatlarini shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan muddatlarda xarid qiladi.

**2.5.** Foydalanilmagan yo'l hujjatlari "Buyurtmachi" tomonidan qaytarilgan taqdirda, qaytarish summasi, "Yo'lovchilar, bagaj va yuk bagaj tashish qoidalari" asosida "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ ma'muriyati orqali da'vo tartibida amalga oshiriladi

**2.6. "Buyurtmachi"** tomonidan sotib olingan guruhli va guruhsiz yo'l hujjatlari uchun to'lovlar, vokzallardagi chipta kassalari tomonidan qaytarilmaydi. Yo'l hujjatlari sotish avtomatlashtirilgan tizimi orqali naqdsiz to'lov asosida rasmiylashtirilgan yo'l hujjatlari bo'yicha to'lovlarning qaytarilishi, tashuvchi tomonidan e'tiroz tartibida, joylarni tizimga majburiy qaytarish sharti bilan qaytariladi.

**3. Hisob-kitob tartibi.**

**3.1. "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"** ga, 9 kishigacha (guruhsiz) va 10 kishi va undan ortiq (guruhli) yo'lovchilar uchun temir yo'l xizmatlari haqini, shu jumladan QQS ni hisobga olgan holda buyurtmanoma uchun belgilangan yig'imni buyurtmanomada ko'rsatilgan joy soniga asosan to'lab beradi.

**3.2. "Buyurtmachi"** ga yo'l hujjatlarini sotish "Bajaruvchi"ning kassalari orqali, "Buyurtmachi" da yo'l hujjatlarini olish uchun ishonchnoma, "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ hisobxonaasining belgisi qo'yilgan to'lov topshiriqnomasi, buyurtmanoma va shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, guruh ro'yxati) mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Foydalanilmagan yo'l hujjatlari "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transportida yo'lovchilar, bagaj va yuk bagaj tashish qoidalari"ning 207, 213 bandlariga muvofiq qaytarilganda, "Buyurtmachi"dan, qaytarish muddatiga ko'ra ushlab qolinadigan summasi va qaytarish operatsiyalari uchun "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ rahbariyati tomonidan belgilangan yig'imlar summasi ushlab qolinadi. Chipta kassasiga topshirilgan foydalanilmagan temir yo'lda harakatlanish hujjatlarini (chiptalar) uchun pul mablag'larini qaytarish "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ filialining 20210000404705474001 hisob raqamidan amalga oshiriladi. "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ ning hisob raqamidagi ishlatilmagan pul mablag'larining qaytarilishi, ikkala tomon tarafidan o'zaro hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomasini imzolagan holda "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ 20210000203717281001 hisob raqamidan qaytariladi.

3.3. "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ yirik soliq to'lovchilar toifasiga kirganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 20-moddasiga asosan, QQS hamda daromad solig'ini alohida bo'linmalarni hisobga olib, markazlashgan holda "O'zbekiston Temir yo'llari" AJ orqali soliq hisobotini taqdim etadi va soliqlarni (yig'imlarni) to'laydi. Shuning uchun "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ shartnoma va hisob-varaq fakturalarini "O'zbekiston Temir yo'llari" AJ nomidan (201051951 STIR va 202472894 STIRni ko'rsatgan holda) Faktura.uz sayti orqali buyurtmachiga yuboradi. Buyurtmachi temir yo'l chipta uchun to'lovlarni ushbu shartnomaning 6-bandida ko'rsatilgan rekvizitlar orqali amalga oshiriladi.

#### 4. Tomonlarning javobgarligi, nizolarni hal etilishi

- 4.1. "Bajaruvchi" temir yo'l chiptalarining to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javob beradi.
- 4.2. Yo'l hujjatlarini rasmiylashtirish uchun zarur bo'lgan taqdim qilinayotgan buyurtmanoma ma'lumotlari, pasport ma'lumotlarining to'g'riligiga "Buyurtmachi" javob beradi.
- 4.3. "Buyurtmachi" tomonidan ko'rsatilgan sanaga davlatlararo va mamlakat ichidagi yo'nalishlarda harakatlanuvchi poyezdlar, shuningdek yuqori tezlikda harakatlanuvchi "Afrosiyob" poyezdiga bo'sh joylar bo'lmagan shartda, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga mazkur shartnomaning shartlarini bajarishni rad etishga haqli.
- 4.4. Tomonlarning mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari, O'zbekiston Respublikasi FK va 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq qo'llaniladi.
- 4.5. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi, yani ular, ularning xodimlari, kaffillangan shaxslari, benefisiari va shartnomani amalga oshirishdagi hamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga, davlat xizmatchilariga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, g'ayriqonuniy ravishda boylik orttirish maqsadida yoki boshqa g'araz niyatda moddiy yoki nomoddiy olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.
- 4.6. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (electron pochta orqali: anticorruption@uks.uz) yoki ishonch telefoni (+9978-140-74-48) orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydilnik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.
- 4.7. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion havf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

#### 5. Yakuniy qoidalar

- 5.1. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2016-yil 22-noyabrdagi 88-son buyrug'iga ilovaga muvofiq, g'aznachilik boshqarmalarida majburiy ro'yxatdan o'tkazilganligi sharti bilan kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.
- 5.2. Mazkur shartnomani tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi. Xizmatlar ko'rsatish qismida shartnoma 04.01.2022y. dan 31.12.2022y. gacha bo'lgan davrda, oxirgi sanani ham hisobga olgan holda amal qiladi. Shartnomaning amal qilish muddati tugashiga, buyurtmanoma berilgan, lekin ko'rsatilmagan xizmatlar mavjud bo'lganida, shartnomaning barcha shartlari bunday xizmatlar lozim tarzda ko'rsatilgunga qadar amal qiladi (uzaytiriladi).
- 5.3. Ushbu shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgarish va qo'shimchalar, faqatgina yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar tarafidan imzolangan haqiqiy hisoblanadi.
- 5.4. Mazkur shartnomani bajarish jarayonida vujudga keladigan barcha nizolar, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq muzokaralar yo'li bilan, yohud iqtisodiy ishlar sudida xal etilishi mumkin.
- 5.5. Ushbu shartnoma bir tomonlama tarzda bekor qilinmaydi.

#### 6. Tomonlarning yuridik manzillari, rekvizitlari va imzolari.

"BAJARUVCHI"

"BUYURTMACHI"

"O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ

700060 Toshkent sh. Turkiston ko'chasi. 7-uy, Ma'lumot uchun 1005 rel 236-45-22.

236-45-23 (kassa)

O'zR TIF Milliy banki Mirobod bo'limi

To'lovlar uchun:

h/r 2021 0000 6037 1728 1003

MFO 00875. STIR 202 472 894

Hisob-varaq faktura uchun:

h/r: 2021 0000 6037 1728 1003

MFO 00875. STIR 201 051 951

OKED 49100. QQS kodi 326010005344

Mamaraimov M.B.

manzil ПИТ и НДС ООО РУз. "Батаннарвар"  
г. Ташкент, Юнусабал 17 кв-л, Промзона  
tel Тел.: 223-67-12, 222-84-88  
h/r К/Сч: 1000 1036 0262 6670 8310 0177 001  
MFO МФО: 00014 ИНН: 201 121 780 ОКОНХ: 91700  
STIR Казначейство Министерства Финансов  
OKED К/Сч: 2340 2000 3001 0000 1010  
PKH Управление Центр. банк г. Ташкент  
PO: 00014 ИНН: 201 122 919



Handwritten signature: A. Kurbaniyozov

Handwritten signature: F. P. S. M.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI



YURIDIK SHAXSNI DAVLAT RO'YXATIGA O'TKAZISH TO'G'RSIDA

# GUVOHNOMA

Reestr № 007748-03

№ 007748

2017 yil "30" yanvar

Mazkur guvohnoma

"O'ZTEMIRYO'LYO'LOVCHI"

DUBLIKAT

Tashkiliy-huquqiy shakli:	Aksiyadorlik jamiyati	yuridik shaxsga berildi:	THSH (ОПФ)	153
Mulkchilik shakli:	Aksiyadorlar		MSHT (ФС)	144
Davlat ro'yxatidan o'tgan kundagi pochta manzili:	TURKISTON KO'CHASI, 7-UY		MHBT (COATO)	1726273
Yuridik shaxs kodi:			KTUT (ОКПО)	16929465
Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami:			STIR (ИИИ)	202472894

Qo'shiricha ma'lumotlar: Avval Mirobod tuman hokimining 26.01.1998 yildagi 52/4-sonli qaror bilan ro'yxatga olingan va Yakkasaroy tumanida 19.01.2015 y. qayta ro'yxatga olingan. 30.01.2017 yilda dublikat rasmiylashtirilgan.

Vakolati organ boshlig'i:

D.S. Abidov



*Handwritten signature*

*komul bepura m. dya: [Signature]*

